

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON BOZORLARNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI

ISLOMOV DILMUROD FAXRIDDIN O'G'LI

“O'zbektelekom” AK Birinchi bo'lim bosh mutaxassisi

+998990600060

e-mail: d.islomov@utc.uz

ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda elektron iqtisodiyoti O'zbekistonda elektron bozorlarni rivojlantirish zarurligini taqozo qilmoqda, bu borada rivojlanishdan qolib ketishimiz mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy jarayonarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun elektron tijorat sohasini mukammal me'yoriy va texnik baza bilan ta'minlash juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015 yil 4 dekabrda 353-sonli qarori bilan 2016-2018 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: *Elektron bozor, raqamli iqtisodiyot, elektron savdo, onlayn xarid tizimlari, elektron to'lov tizimlari, internet marketing, raqamli transformatsiya.*

Ushbu hujjatda asosiy vazifalar belgilanib, ular ushbu iliy ishning xulosalari va tavsiyalarida ishlab chiqilgan yechimlarda o'z aksini topdi. Ushbu muhim vazifalarga quyidagilar kiradi:

- elektron tijorat to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish;



- elektron tijorat sohasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashgan darajada mazkur biznes-segmentida istiqbollarga erishish;

- elektron tijorat, shu qatorda telekommunikatsiyalar tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiyalash;

- iste'molchilik bozorining talabiga muvofiq tovarlar aylanmasi, mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish;

- integratsiyalashgan savdo ma'varketing platformalar, internet-do'konlar, mukammalroq to'lov tizimlari, shuningdek elektron tijoratda logistika tizimlarini yaratish;

- tadbirkorlikni rivojlantirishbyurokratik to'siqlarni bartaraf qilish, xalqaro standartlarga yo'naltirilgan ishbilarmonlik muhitini yaxshidash;

- elektron tijorat sohasida ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish, tahlil qilish va tatbiq etish.

O'zbekistonda mavjud elektron tijorat me'yoriy-metodologik bazasining hozirgi holati bo'yicha o'tkazilgan tahlili shuni ko'rsatiki, bir qator yo'nalishlarda uni yanada takomillashtirish zarur ekan, jumladan:

- elektron tijoratda soliqqa tortish samarali tizimini yaratish;

- elektron tijoratni davlat tomonidan tartibga solish me'yoriy asoslarini takomillashtirish;

- makroiqtisodiy darajada elektron (raqamli) pullarni tartibga solish (emissiya, ta'minot, likvidlik, turli xil pullarning raqamli pullarga transformatsiya va aksincha egiluvchanligi masalalari va h.k.) sohasida;

- mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari va sotuvchilari qatnashishi uchun elektron savdo maydonlarni takomillashtirish;

- tovarlar va xizmatlar haqida axborot teruvchi saytlar, shuningdeksotishdan va sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatishsifatini oshirish va x.k.



Elektron tijoranni rivojlantirish ustuvorvazifalardan biri bu integratsiyalashgan savdo va marketing platformalar, internet-do'konlar, mukammalroq to'lov tizimlari, shuningdek elektron tijoratda logistika tizimlarini yaratishdan iborat. Ta'kidlash joizki, ushbu vazifa bir necha kichik vazifalardan tashkil topib, ularning har biri yechimida alohida yondashuv qo'llashni talab qiladi. Xususan, ularga quyidagilar kiradi:

- savdo va marketing maydonlarni yaratish;
- internet-do'konlarni tashkil qilish bo'yicha metodologik va me'yoriy bazasini takomillashtirish;
- qulay va ishonchlik to'lov tizimlarni ishga tushirish va foydalanish;
- elektron tijorat logistikasi infratuzilmasini ta'minlash va rivojlantirish.

Elektron tijoratni tartibga solish xalqaro tajribasi tijorat munosabatlar jarayonida paydo bo'ladigan barcha masalalarni qamrab oladi. Ushbu tijorat munosabatlarga quyidagi bitimlar kiradi:

- oldi-sotti;
- yetkazib berish;
- mahsulotlarni taqimlash to'g'risida kelishuv;
- savdo vakolatxonasi yoki agentligi;
- faktoring;
- lizing;
- konsalting;
- injiniring;
- investitsion shartnomalar;
- sug'urta;
- foydalanish va konsessiya to'g'risida kelishuv;



- bank xizmatlari;
- birgalikda faoliyat yuritish hamda sanoat va ishbilarmonlik hamkorligi shakllari;
- yuklarni yok yo'lovchilarni havo, dengiz, temir yo'l transporti bilan tashish.

Elektron tijorat me'yoriy bazasini takomillashtirida yuqorida keltirilgan barcha bitimlarda "tomonlar bitimni faqatgina elektron usulda tuzilganligi uchun qonuniyligini shubha ostiga olish haqli emas" degan elektron tijorat huquqiy prinsipiga amal qilish kerak. Ushbu prinsip tomonlar o'rtasida maxsus kelishuv bilan mustahkamlangan. Shu bilan birga bir qator mamlakatlar qonunchiligida tomonlar shartnoma bo'yicha u yoki bu xabarlar yuborilishi qonuniyligini tomonlarning o'zlari yozma yoki o'z imzolari bilan tasdiqlangan hujjat talab etilishi sabab ko'rsatilib shubha ostiga olish huquqiga egadir.

O'zbekistonda elektron imzoning huquqiy tomondan mustahkamlangandir, xususan O'zbekiston Respublikasi "Raqamli imzo to'g'risida" qonun bandlariga muvofiq bitim tuzuvchi tomonlarga elektron shaklda shartnomalar tuzishga ishonch bag'ishlaydi. Ammo shu bilan birga bahsli vaziyatlar hal qilinganda elektron shaklda tuzilgan shartnomu zamonaviy elektron muhitning keng ko'lamli texnik imkoniyatlari diapazonini hisobga olmaslik xavfi mavjud, bu esa tegishli axborot tarmoqlar va bazalarda axborotni buzish, oshkor qilish, o'chirish orqali axborot yetishmovchilik, noshaffoflik va noxolislikka olib kelib huquqiy jarayonlarda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bundan tashqari, elektron shartnoma ishtirokchilari elektron xabarlar tuzuvchilari va adresat o'rtasida vositachi bo'lgan uchinchi shaxslar huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatini samarali tartibga solish imkoniyatiga ega emas. Vositachi ushbu kelishuvning ishtirokchisi bo'lmay turib, shu bilan birga elektron tijoratning muhim ishtirokchisi hisoblanadi. Bu yerda elektron xabarlar qyuborish/qabul qilish bo'yicha normal ishlashini ta'minlovchi vositachilar, aloqa xizmatlar yetkazib beruvchilar nazarda tutilgan. Shuning uchun axborot vositachilar va ularning faoliyatini tashkil qilishga



tegishli me'yorlarni elektron tijorat jarayoni tashabusskorlarining ishonchini oshirish uchun takomillashtirish muhimdir. Bundan tashqari, elektron savdoning barcha ishtirokchilariga huquqiy kafolatlarini oshirishga yo'naltirilgan maxsus me'yorlarini yaratish kerak.

Hozirgi vaqtda elektron tijoratni rivojlantirish sohasida O'zbekistonda savdo, marketing maydonlarni tashkil qilish bilan bog'liq dolzarb muammo mavjud. Shu munosabat bilan elektron maydonlarni samarali tashkil qilish va tartibga solish me'yoriy asoslarni takomillatirishni taklif qilamiz.

Elektron savdo maydonlarni tashkil qilish mavjud me'yoriy bazasining o'tkazilgan tahlili ushbu masalaga tegishli huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yid 2 iyundagi 185-sonli "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilinganligi hisoblanadi, ushbu qaror bilan Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalarning IV bo'limida o'z aksini topgan.

Bizning fikrimizcha, elektron tijoratni tashkil qilish va tartibga solish bilan bog'liq me'yorlarni O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida" qonuni me'yorlar qatoriga ko'shish maqsadga muvofiq, bu esa biznes-muhitda me'yorlarni ommabop bo'lishiga hamda me'yoriy asoslarning kuchayishiga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, elektron savdo tizimida virtual munosabatlarni tartibga solish uchun elektron savdo maydonlarni tashkil qilish shakllarni muhim hisoblanadi, shuning uchun O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida" qonuniga birinchidan elektron savdo maydonlarni tashkil qilish shakllari va turlari, ularning ishlash mexanizmlari, ikkinchidan, elektron savdo maydonlar faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq me'yorlarni aks ettiruvchi yuridik me'yorlar kiritish zarurligi mavjud.

Elektron tijoratning 6 modellarida, ularning xususiyatlari alohida to'xtalgan edik, elektron savdo maydonlarni tashkil qilish shakllariga kelsak, ular amaliyotda



uch shaklsha ega, aniqrog'i elektron savdo maydonlar kim oshdi savdolar, birjalar va tovarlar kataloglar bozorlari (narxлари oldindan belgilangan tovarlar ro'yxati). Elektron savdo maydonlar va elektron tijorat modellarning ko'pgina shakllari mavjud sharoitda elektron tijorat ishtirokchilar o'zaro munosabatlar shakllarining turli bo'lishi muhim. Ushbu vaziyatda mazkur elektro bozorlarning o'ziga xosliklarini hisob oluvchi qonunchilik bazasida tegishli me'yorlar va talablar mavjudligi muhim.

Misol uchun, "B2C" modelida elektron savdoni tashkil qilishda bozorni tovar katalogi shaklida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Elektron savdo maydonning bunday shaklini tashkil qilish xaridorlarning katta auditoriyasi bilan samarali savdoni ta'minlaydi, ammo shu bilan birga ushbu bozorda ham sotuvchi ham xaridora uchun yuqori xaf bor. Shuning uchun bozor ishtirokchilari uchun axborotdan foydalanish va ishonchligi bo'yicha huquqiy me'yorlar bo'lishi shart. Huquqiy me'yorlar bilan majburiy axborot (tovar, uning sifati, sotuvchi, ishtirokchilari, sotuvchi haqida xaridorlarning fikrlari kabi) hamda elektron savdo sharoitida ularga bozor ishtirokchilari foydalanish huquqi bo'lishi belgilanishi kerak. Bundan tashqari, sotuvchi va xaridorlar tomonidan taqdim etilgan axborot sifati, xususan axborotning shaffofligi, ishonchligi, tezkorligi, ko'lami haqida me'yorlarni ishlab chiqish muhim, ammo shuningdek huquqiy me'yorlar va talablarning buzilishida savdo jarayoni ishtirokchilariga nisbatan sanksiyalarni qo'llash me'yorlar bo'lishi muhimdir.

Elektron savdo tizimida bozor ishtirokchilarning axborot ta'minoti ahamiyatidan kelib chiqib ishtirokchilarning elektron axborot bazalaridan foydalanish huquqi masalasi dolzarb hisoblanadi. Bunday yondashuv tovar-pul jarayonining o'tkazish xavfsizligini oshirishga imkon beradi.

Yana bir dolzarb masalalardan biri bu elektron tijorat rivojlanishi bilan jamiyatda elektron (raqamli) pullarda ehtiyoj o'sib boraji. Elektron pullarning emissiyasi, aylanishi, ta'minoti va qarzdorligini bartaraf qilishni huquqiy tartibga



solish oxirgacha o'z yechimini topgana, ushbu hol normativ bazasini yanada takomillashtirish zarurligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratda pullar aylanmasi va to'lov jarayonlarini samarali tartibga solish uchun "Elektron pullar to'g'risida" qonunini qabul qilish maqsadga muvofiq, chunki nafaqat elektron tijorat, balki elektron iqtisodiyotining rivojlanishi ko'tarilgan masalaning yechimiga bog'liq. Elektron iqtisodiyotda pullar aylanishning yuqori darajasi, mobillik, egiluvchanlik, harakatlanishda moslashuvchanlik hamda bir shakldan boshqasiga o'zgarish kabi xususiyatlarga ega bulishi kerak. Bularning hammasi faqatgina hisob-kitob to'lov muhitida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda bo'lishi mumkin. Iqtisodiyot uchun ushbu masalaning yana bir muhim jihati shundan iboratki, bozor infratuzilmasi samaradorligi zamonaviy to'lov tizimlari infratuzilmasi rivojlanganligiga bevosita bog'liq.

Hozirgi vaqtda yirik hamda mayda (chakana) to'lovlar uchun to'lov tizimlar soni oshib bormoqda, bu esa iqtisodiyotda pul tizimi axborot texnologiyalarga bog'liqligi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Bu borada elektron shaklda pullar aylanmasining xavfsizligi, ishonchligi, ta'minoti, shaffofligi global darajada dolzarb bo'lmoqda. Ushbu vazifalar yuqorida ko'rsatilgan maxsus qonunni qabul qilish kerakligini taqozo etadi. Taklif etilgan me'yoriy hujjat elektron pullar emissiyasi, mamlakatda elektron pullar aylanmasini tashkil qilish va tartibga solish, elektron pullar aylanmasi standartlar va me'yorlarga rioya qilmaganda sanksiyalar bilan bog'liq me'yorlarni o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, chakana va xususiy hisob-kitoblar va to'lovlarda elektron pullar aylanmasi ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlariga tegishli me'yorlar kiritilish lozim.

Zamonaviy iqtisodiyotda virtual o'zaro munosabatlarni tashkil qilish va tartibga solish sohasida ko'pgina me'yoriy hujjatlar mavjudligi o'shuni ko'rsatdiki, elektron tijoratda virtual munosabatlarni tartibga solish sohasida mavjud me'yoriy hujjatlarda takrovlanuvchi yoki mazmunan yaqin me'yorlar bor ekan. Bu hol mavjud normativ hujjatlarni kodeks shaklidagi yagona hujjatga birlashtirish



zarurligini taqozo etadi. Ushbu taklifning amalga oshirilishi sohani huquqiy tartibga solishni soddalashtiradi takrorlanuvchi me'yorlar, qonunlar maqolalari va boshqa me'yoriy hujjatlarni bekor qiladi.

Elektron tijorat sub'ektlarini soliqqa tortish samarali mexanizmni shakllantirish jarayoni, avvalambor, elektron biznes segmentida soliqqa tortish muammolarini bartaraf qilish imkoniyatlarini aniqlashda asoslanishi kerak.

Elektron tijorat sub'ektlarini soliqqa tortish muammolarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- soliq qonunchiligining nomukammalligi muammosi;
- elektron tijoratja soliq azorati muammolari;
- soliq yurisdiksiyasini aniqlash muammolari;
- soliq to'lovchilarni aniqlash muammolari;
- soliqqa tortish majburiy elementlarini aniqlash muammolari;
- elektron savdo turli segmentlarida (iste'molchilik, korporativ, davlat)

soliq yukini tekislash muammosi;

- ikki tomonlama soliqqa tortish.

Hozirgi vaqtda xorijiy olimlar tomonidan elektron tijorat sub'ektlarni soliqqa tortish bir necha konsepsiyalari ishlab chiqilib, kelajakda ular yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish imkonini berishi mumkin. Xorijiy ilmiy adabiyotlarni o'rganilganda elektron biznesni soliqqa tortish uchun yangi soliqlarni kiritish zarurati yo'qilgi, faqatgina mavjudlarni takomillashtirish kerakligi to'g'risida fikrlarni uchratish mumkin.

Elektron xizmatlar segmentini rivojlanishi nafaqat yangi biznes yuritish uchun imkoniyatlarni ochib beradi, balki soliqqa tortish sohasida yangi qiyinchiliklarga olib keladi. Soliq masalalari bo'yicha davlat qo'mitasi elektron xizmatlar va elektron tijoratni soliqqa tortishda eng jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladigan asosiy omillarni belgiladi: kontragentlar shaxsini belgilash; kontragentlar manzilini belgilash; axborot va zarur hujjatlarni olishda soliq organlari uchun qiyinchiliklar.



1998 yilda Ottava shahrida soliqqa tortish Asosiy shartlari qabul qilingan bo'lib, elektron tijoratni soliqqa tortish fundamental prinsiplarini o'z ichiga olgan. Ushbu prinsiplar hozirgi kunda ham o'z dolzarbilig yo'qotmagan va raqamli iqtisodiyotning soliqqa tortish asosi hisoblanadi.

Elektron tijorat fundamental prinsiplarga quyidagilarga kiradi:

Neytrallik. Soliqqa tortish tizimlari elektron tijoratning har xil turlari, elektron tijorat hamda biznes yuritishning an'anaviy shakllariga nisbatan neytral bo'lishi kerak. O'xshash operatsiyalarni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilari o'xshash soliqlarni to'lashi lozim.

Samaradorlik. Soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligining barcha talablarga rioya qilish hamda soliq organlarning ma'muriy xarajatlari minimum bo'lishini ta'minlash.

Aniqlik va soddalik. Soliqqa tortish qoidalari tushunish uchun aniq va sodda bo'lishi kerak, soliq to'lovchilar o'tkazilgan tranzaksiyalar bo'yicha soliq oqibatlarini, shu qatorda soliqni belgilash vaqti, joyi va tartibini, oldindan belgilash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Samaradorlik va adolat. Soliqqa tortish qoidalari soliq to'lovchining soliq summalarini o'z vaqtida to'g'ri hisoblashni ta'minlashi zarur. Soliqlardan bo'yin tovlash uchun imkoniyalar qoldirmaslik kerak, shu bilan birga qabul qilinayotgan choralar va xavf-xatarlar hajmini hisobga olish lozim.

Egiluvchanlik. Soliqqa tortish tizmi egiluvchan va dinamik bo'lishi hamda texnologiyalar va tijorat sohasida rivojlanishdan qolib ketmaslik kerak.

Yevropa Ittifoq mamlakatlarida soliqlar tartibga solishni tashkil qilish amaliyoti katta qiziqish o'yg'otadi. Barcha mamlakatlar elektron iqtisodiy faoliyatini soliqqa tortish sohasida mavjud bo'shliqlarni tezkor bartaraf qilishda manfaatdordir. Ular o'zining ichki va tashqi soliq siyosatini budjet va soliq manfaatlari ustuvorligidan kelib chiqib, elektron iqtisodiy munosabatlarni maksimal ravishda davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi asosida olib



borishadi. Birinchi navbatda Yevropaning ayrim mamlakatlari (Fransiya, Shveysariya, Germaniya) hukumatlarining noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi elektron tijorat sub'ektlarni identifikatsiyasi mexanizmini yaratish bo'yicha urinishlar diqqatga sazovor. Qonuniy tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi barcha saytlarda maxsus identifikatsiya belgisi mavjud, bu esa iste'molchiga elektron tijorat sub'ektining soliq organlarida ro'yxatdan o'tganligini tekshirishga imkon beradi. Shuning uchun bunday tadbirkorlarda tovarlarni xarid qilinganda davlat iste'molchilar huquqlarini himoya qilish kafolatini beradi. Tabiiyki, Tarmoq foydalanuvchilari aynan ushbu identifikatsiya raqamiga ega tadbirkorlar bilan ishlashni afzal ko'rishadi. Yuqoridagi gaplarga muhim qo'shimcha sifatida ta'kidlash joizki, ushbu raqamga ega bo'lish uchun tadbirkor nafaqat soliq hisobiga turishi lozim, balki hozirgi vatqda tashqi nazoratni qo'llash murakkabligi bilan ajralib turgan elektron to'lov tizimlar orqali pul vositalar harakatlanishi haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etish to'g'risida kelishuvga imzo qo'yadi.

Yevropadagi, xususan Germaniya, Ispaniya va Italiyada, amaliyotning yana bir yutuqi bu Internetda noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun jarimalar tizimi yaratishdan iborat. Global tarmoqda biznesni olib borishni nazorat qilish ancha murakkab bo'lganligi uchun tadbirkorlar soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash uchun ko'proq moyil bo'lishadi. Hukumatlarning fikricha yuqori jarimalar (hatto kompaniyaning butun mulkini musodara qilishgacha) Internetda noqonuniy faoliyatini yurituvchi tashkilotlar sonini pasaytirishga qodir.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fundamental prinsiplar va soliqqa tortishni tartibga solishning ilg'or amaliyayotiga muvofiq elektron tijorat sohasida soliqqa tortish tizimi yanada takomillashtirish zarur.

Elektron tijoratni davlat tomonidan tartibga solish masalasi muhim hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida elektron tijoratni samarali tartibga solish uchun mamlakatimio' hukumati quyidagi jihatlarni hisobga olishi kerak:



- “raqamli qoloqlikni” arzon va foydalanish uchun sodda axborot tarmoqlarga ulanishni ta'minlash evaziga yengi o'tish;
- soliq mexanizmlar hisobiga elektron savdoning iqtisodiy rag'batlantirish;
- elektron tijorat bitimlarini huquqiy tan olish;
- iste'molchilarni firibgarlikdan himoya qilish;
- iste'molchilarning shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash;
- buzishdan huquqiy himoya (yoki kompyuter tizimlariga ruhsatsiz ulanish);
- intellektual mulkni himoya qilish.

Ushbu masalalar yechimi bo'yicha chora-tadbirlar mamlakatimiz hukumatining elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha siyosiy va huquqiy faoliyatiga kiritilishi kerak. Elektron tijorat va zamonaviy tendesiyalar, xususan shartnomalarni bajarish, iste'mochilar huquqlarini himoya qilish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, mas'uliyat, konfidensialligini himoya qilish, transchegaraviy savdo, logistika infratuzilmasi, sohasida ilg'or xalqaro me'yorlarini hisobga olgan holda ushbu yo'nalishda tegishli qoidalar, qonunlar, imtiyozlarni takomillashtirish yoki qabul qilish juda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Elektron tijorat O'zbekistonda va Xitoy raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish drayveri sifatida – T. Samedinov. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali, 2025. yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
2. O'zbekistoning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari – Sh. Baymuradov. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali, 2023. yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
3. O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI – M. Pazildinov. «Aktualnye problemy...» jurnali, 2024. scienceproblems.uz
4. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHTA O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLARNING O'RNI – E. Nozimov. «Aktualnye problemy...» jurnali, 2024. scienceproblems.uz
5. Elektron tijorat asoslari – R. H. Ayupov va boshqalar. Tillar: o'zbekcha, 2020. kitobxon.com

